OLIY TA’LIMDA TALABALARNI BAHOLASh TIZIMI: TA’LIM SIFATINI TA’MINLASh VA TAKOMILLAShTIRIShDAGI YONDAShUVLAR

Batirova Feruza Kadamovna – *mustaqil tadqiqotchi*
batirovaferuza@mail.ru
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

СИСТЕМА ОЦЕНИВАНИЯ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ПОДХОДЫ К ОБЕСПЕЧЕНИЮ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Батирова Феруза Кадамовна – *самостоятельный соискатель*
Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами

STUDENT’S ASSESSMENT SYSTEM IN HIGHER EDUCATION: APPROACHES TO ENSURING AND IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

Batirova Feruza Kadamovna – *independent researcher*
National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami

Tayanch so‘zlar: talabalarni baholash, ta’lim sifati, sifatni ta’minlash, formativ baholash, summativ baholash, fikr-mulohaza, ta’lim natijalari, baholash mezonlari, ESG-2015.

Rezyume. Maqolada oliy ta’lim tizimida talabalarni baholashning ta’lim sifatini ta’minlash va takomillashtirishdagi o‘rni hamda ahamiyati tadqiq etilgan. Baholashning an’anaviy test va imtihonlar bilan cheklanib qolmasdan, loyiha, portfolio, amaliy topshiriq, o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash kabi zamonaviy usullar bilan uyg‘unlashtirilishi zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, baholash natijalarini faqat yakuniy reyting yoki ball sifatida emas, balki ta’lim jarayonini monitoring qilish, mavjud muammolarni aniqlash va o‘qitish metodikasini takomillashtirish uchun muhim tahliliy axborot manbayi sifatida qo‘llash imkoniyatlari yoritilgan. Natijada baholashni “ta’lim natijalarini belgilash – o‘qitish – baholash – tahlil – fikr-mulohaza – takomillashtirish” uzviyligi asosida tashkil etish ta’lim sifatini uzluksizligining muhim mexanizmi ekanligi asoslangan.

Ключевые слова: оценивание студентов, качество образования, обеспечение качества, формативное оценивание, суммативное оценивание, обратная связь, результаты обучения, критерии оценивания, ESG-2015.

Резюме. В статье исследуются роль и значение оценивания студентов в системе высшего образования в обеспечении и совершенствовании качества образования. Обосновывается необходимость сочетания традиционных методов оценивания, таких как тесты и экзамены, с современными методами, включая проектное оценивание, портфолио, практические задания, самооценивание и взаимооценивание. Также рассматриваются возможности использования результатов оценивания не только в качестве итогового рейтинга или балла, но и как важного источника аналитической информации для мониторинга образовательного процесса, выявления существующих проблем и совершенствования методики преподавания. В результате обосновано, что организация оценивания на основе взаимосвязанного цикла «определение результатов обучения – преподавание – оценивание – анализ – обратная связь – совершенствование» является важным механизмом обеспечения непрерывного повышения качества образования.

Key words: student assessment, quality of education, quality assurance, formative assessment, summative assessment, feedback, learning outcomes, assessment criteria, ESG-2015.

Summary. The article examines the role and significance of student assessment in higher education in ensuring and improving the quality of education. It substantiates the need to combine traditional assessment methods, such as tests and examinations, with modern approaches, including project-based assessment, portfolios, practical assignments, self-assessment, and peer assessment. The article also highlights the potential to use assessment results not merely as final grades or scores, but as an important source of analytical information for monitoring the educational process, identifying existing problems, and improving teaching methodologies. The study substantiates that organizing assessment based on the interconnected cycle of “defining learning outcomes – teaching – assessment – analysis – feedback – improvement” constitutes an important mechanism for ensuring the continuous improvement of educational quality.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri – raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay oladigan mutaxassislarni tayyorlashdir. Bu jarayonda talabalar bilim va ko‘nikmalarini obyektiv baholash alohida ahamiyatga ega. Baholash faqat yakuniy natijani aniqlash vositasi emas, balki ta’lim jarayonini takomillashtirish, o‘qitish usullarini tahlil qilish va talabalarning o‘z bilim hamda ko‘nikmalarini baholash imkonini beruvchi muhim pedagogik mexanizmdir [1, 2].

Shu sababli oliy ta’limda talabalar bilimini baholashni oddiy pedagogik nazorat vositasi emas, balki ta’lim sifatini boshqarish va takomillashtirishning institutsional mexanizmi sifatida qarash zarur. Bunda baholash mezonlarining obyektivligi, shaffofligi, ishonchliligi va ta’lim natijalariga muvofiqligi bilan bir qatorda, uning natijalaridan ta’lim dasturlarini takomillashtirish, o‘qitish metodlarini qayta ko‘rib chiqish hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda foydalanish muhimdir [4].

Mehnat bozori talablarining tez o‘zgarib borayotgan sharoitida oliy ta’lim samaradorligini talabaning faqat nazariy bilimlari bilan emas, balki bilimlarini amaliyotda qo‘llashi, mustaqil qaror qabul qilishi, muammolarni tahlil qilishi va kasbiy faoliyatida samarali foydalana olishi bilan baholash talab etiladi. Demak, talabalarni baholash tizimini takomillashtirish ta’lim sifatini ta’minlashning muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Talabalarni baholash masalasi pedagogika va oliy ta’lim metodikasiga oid tadqiqotlarda ta’lim natijalarini aniqlash, o‘quv jarayonini monitoring qilish va talabalarni rivojlantirish vositasi sifatida talqin etiladi. Shodmonova va boshqalar [1] hamda Tolipov va Ro‘ziyeva [2] asarlarida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish, ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat masalalari yoritilgan bo‘lib, baholashni ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rish uchun nazariy asos yaratadi.

Nicol va Macfarlane-Dick [3] formativ baholashni talabaning o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganishi va samarali fikr-mulohaza bilan bog‘laydi. Ularning yondashuvida baholash natijasi faqat o‘quv faoliyatini qayd etish emas, balki talabaning keyingi faoliyatini yo‘naltiruvchi axborot manbai sifatida qaraladi. Hattie va Timperley [7] esa fikr-mulohazaning ta’lim natijalariga ta’sirini alohida ta’kidlaydi.

Abdiraiymov, Mahmudov va Tojiboyev [4] ta’limda baholash va monitoring asoslarini yoritib, baholash natijalaridan ta’lim jarayonini tahlil qilishda foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Muhammadiev va Yuzbayeva [5] oliy ta’limda talabalarni bilim olishga rag‘batlantirish masalalarini ko‘rib chiqadi. Mazkur ishlar baholashning motivatsion va rivojlantiruvchi jihatlarini tushunishda muhimdir.

Oliy ta’limda kredit-modul tizimining joriy etilishi baholash mexanizmlarini ta’lim natijalari va kompe-tensiyalar bilan muvofiqlashtirishni talab etadi. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimiga oid me’yoriy hujjatlar [6] baholash jarayonini tartibga solishda muhimdir.

Xorij mamlakatlari tajribasi asosida ESG-2015 (Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area) doirasida talabani o‘qitish, ta’lim olish va baholash tamoyillarida belgilangan mezonlarning shaffofligi, adolatliligi, ishonchliligi, ta’lim natijalariga muvofiqligi, qayta aloqa, turli baholash usullaridan foydalanish, apellyatsiya va akademik halollik kabi jihatlarni muhim deb hisoblash imkonini beradi. Shunday qilib, mavjud adabiyotlar va me’yoriy manbalar tahlili baholashni nazorat vositasidan ta’lim sifatini boshqarish mexanizmiga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini oliy ta’limda talabalarni baholashning pedagogik va institutsional yondashuvlarini tizimli ko‘rib chiqish tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Talabalarni baholashning asosiy maqsadi – ularning bilim, ko‘nikma, malaka va kompe-tensiyalarini xolis aniqlash, kuchli va zaif tomonlarini belgilash hamda ta’lim jarayonini takomillashtirishdan iborat [5]. Bunda talabaning ma’lumotni qanchalik yod olgani emas, balki uni tushunishi, tahlil qilishi va amaliyotda qo‘llay olishi muhim hisoblanadi. Shuningdek, baholash orqali tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot, jamoada ishlash, axborot bilan ishlash va mustaqil qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

Zamonaviy oliy ta’limda baholash faqat nazorat vositasi bo‘lib qolmasdan, diagnostik, rivojlantiruvchi, motivatsion va qayta aloqa (feedback) funksiyalarini ham bajaradi [3]. Uning natijalari talabalarning o‘zlashtirishidagi kamchi-liklarni aniqlash, individual rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash va o‘qitish metodlariga zarur o‘zgartirishlar kiritish imkonini beradi [4]. Shu jihatdan baholash ta’lim sifatini uzluksiz takomillashtirishning muhim mexanizmi hisoblanadi.

Oliy ta’limda kredit-modul tizimining joriy etilishi talabalar bilimini baholash mexanizmlarini ta’lim natijalari va shakllantirilishi lozim bo‘lgan kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtirishni talab etmoqda [6]. Bunda baholash mezonlarining shaffofligi, obyektivligi, ishonchliligi va adolatliligini ta’minlash muhimdir. Mazkur yondashuvni xalqaro sifatni ta’minlash tamoyillari, xususan, Yevropa oliy ta’lim hududining ESG-2015 standartlari bilan uyg‘unlashtirish baholash sifatini oshirishga xizmat qiladi. Demak, talabalarni baholashni faqat o‘zlashtirishni aniqlash vositasi emas, balki ta’lim natijalarini yaxshilash, samarali qayta olaqa o’rnatish (feedback berish) ta’lim sifatini uzluksiz takomillashtirishga xizmat qiluvchi institutsional mexanizm sifatida qarash lozim.

1-jadva. ESG 1.3 standarti asosida talabalarni baholash mezonlari*

Talab	Mazmuni
Ta’lim natijalari (Learning outcomes)	Baholash kutilayotgan ta’lim natijalarini o‘lchashi kerak
Shaffoflik (Transparency)	Mezonlar oldindan ma’lum bo‘lishi kerak
Adolatlilik (Fairness)	Barcha talabalar adolatli baholanishi kerak
Ishonchlilik (Reliability)	Baholash natijalari ishonchli bo‘lishi kerak
Qayta aloqa (Feedback)	Talabaga natijasi bo‘yicha izoh (tushuntirish) berilishi kerak
Turli baholash usullari (Multiple assessment)	Imkon qadar turli baholash usullaridan foydalanish
Apellyatsiya (Appeals)	Talaba natijadan norozi bo‘lsa, apellyatsiya mexanizmi bo‘lishi kerak
Akademik halollik (Academic integrity)	Akademik halollik ta’minlanishi kerak

Baholashning yuqoridagi mezonlari quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ✓ talabaning bilim darajasini aniqlashga qaratilgan;
- ✓ amaliy ko‘nikmalarini baholaydi;
- ✓ mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- ✓ o‘qituvchiga ta’lim natijalarini tahlil qilish imkonini beradi;
- ✓ talabaga o‘z xatolarini anglash va ular ustida ishlashga yordam beradi.

Ilmiy adabiyotlarda ta’lim jarayonida talabalarni baholash shartli ravishda **formativ** va **summativ** turlarga ajratiladi. *Formativ baholash* – ta’lim jarayoni davomida amalga oshiriladigan baholash turi bo‘lib, uning asosiy maqsadi talabaning o‘quv materialini qay darajada o‘zlashtirayotganini aniqlash va unga o‘z vaqtida fikr-mulohaza, ya’ni qayta aloqa berishdan iborat. Savol-javob, kichik testlar, amaliy topshiriqlar, munozaralar va mustaqil

* ESG 1.3 – “Student-centered learning, teaching and assessment” (ESG 1.3 – “Talabaga yo‘naltirilgan o‘rganish, o‘qitish va baholash”)

ishlar formativ baholashning samarali vositalari hisoblanadi. *Summativ baholash* esa ma’lum bir o‘quv davri yakunida talabaning umumiy ta’lim natijalarini aniqlashga qaratiladi. Imtihon, yakuniy nazorat, kurs ishi yoki loyiha himoyasi, bitiruv malakaviy ishi kabi baholash shakllarini bunga misol sifatida keltirish mumkin [3, 7].

Ta’lim sifatini ta’minlashda adolatli va shaffof baholash muhim ahamiyatga ega. Bunda talabalar natijasi shaxsiy munosabat asosida emas, balki oldindan belgilangan va ularga ma’lum bo‘lgan aniq mezonlar asosida baholanishi lozim. Yozma ish, loyiha va amaliy topshiriqlar uchun qo‘yiladigan talablar hamda ball berish mezonlarining ochiq belgilanishi talabalarning ta’lim natijalari uchun mas’uliyatini oshiradi.

Baholash natijalari ta’lim muassasasi uchun muhim tahliliy ma’lumot manbai bo‘lib, talabalar o‘zlashtirishidagi muammolar va ta’lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi. Past natijalar o‘quv materialining murakkabligi, o‘qitish metodikasi yoki baholash topshiriqlarining ta’lim maqsadlariga mos kelmasligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli baholash natijalari ta’lim jarayonini tanqid qilish emas, balki uni takomillashtirish uchun asos sifatida qo‘llanilishi lozim.

Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi testlar, elektron topshiriqlar va portfoliolar orqali baholashni tezkor va shaffof tashkil etish, shuningdek, talabalarning o‘zlashtirish dinamikasini tizimli tahlil qilish imkonini bermoqda. Biroq texnologiyaning o‘zi baholash sifatini kafolatlamaydi; bunda topshiriqlar mazmuni, baholash mezonlari va ularning ta’lim maqsadlariga muvofiqligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’limda faqat test va imtihonlarga asoslangan baholash yetarli emas. Talabalarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda, amaliy va ijodiy qobiliyatlari, muammolarni mustaqil hal qilish, jamoada ishlash hamda kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholash zarur.

Shu nuqtayi nazardan, quyidagi usullar samarali va ijodiy yondashuvga asoslangan baholash shakllari hisoblanadi:

1. *Loyiha asosida baholash.* Talaba muayyan muammoni mustaqil yoki jamoa bilan hal qilib, erishilgan natijani taqdim etadi. Ushbu usul talabaning bilimlarini amaliyotda qo‘llash, ijodkorlik va jamoada ishlash ko‘nikmalarini aniqlash imkonini beradi.

2. *Portfolio.* Talabaning semestr yoki o‘quv yili davomida bajargan ishlari jamlanib, uning individual rivojlanish dinamikasi baholanadi. Mazkur usul talabaning faqat yakuniy natijasini emas, balki o‘quv jarayoni davomida erishgan yutuqlari va rivojlanish bosqichlarini ham baholash imkonini beradi.

3. *O‘z-o‘zini baholash.* Talaba o‘z faoliyatini belgilangan mezonlar asosida tahlil qiladi. Ushbu usul talabada mas’uliyat, o‘z faoliyatini tahlil qilish va refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

4. *O‘zaro baholash.* Talabalar bir-birlarining ishlarini oldindan belgilangan mezonlar asosida baholaydilar. Bunda talabalarning tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, asoslangan fikr bildirish va xolis yondashish ko‘nikmalari rivojlanadi.

5. *Elektron baholash.* Raqamli platformalar va onlayn testlardan foydalanish baholash natijalarini tezkor olish, saqlash, tizimlashtirish va tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, elektron baholash natijalarni monitoring qilish va talabaning o‘zlashtirish dinamikasini kuzatish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Baholash jarayonida xolislik va shaffoflik muhim talab hisoblanadi. Talaba baholash mezonlarini oldindan bilishi, o‘qituvchi esa ularni aniq belgilashi subyektivlikni kamaytirib, baholashga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Shu sababli zamonaviy oliy ta’limda loyiha, portfolio, o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash hamda elektron baholash usullaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv nazariy bilim bilan birga amaliy ko‘nikma, ijodiy va tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish hamda kasbiy kompetensiyalarni baholash imkonini beradi. Natijada baholash ta’lim sifatini ta’minlash, talabaning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va ta’lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi mexanizmga aylanadi.

Samarali baholash talabaning kuchli va zaif jihatlarini aniqlashi, keyingi o‘quv maqsadlarini belgilashi, bilim va ko‘nikmalarini mustaqil rivojlantirishi hamda o‘z o‘quv faoliyatini tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmasini shakllantirishiga yordam beradi (1-rasm).



1-rasm. Talabaning bilim, ko’nikma va kompetensiyalariga samarali baholashning ta’siri

Baholash natijalarini faqat reyting yoki yakuniy ball sifatida qabul qilish ta’lim sifatini boshqarish imkoniyatlarini cheklaydi. Aslida, baholash natijalari o‘qituvchi va ta’lim muassasasi uchun muhim tahliliy ma’lumot manbai hisoblanadi. Agar talabalarning katta qismi muayyan mavzu yoki kompetensiya bo‘yicha past natija ko‘rsatsa, ushbu holatni faqat talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan izohlash to‘g‘ri emas. Bunday vaziyatda o‘qitish metodikasi, o‘quv materiallarining murakkablik darajasi, mazkur mavzuga ajratilgan o‘quv soatlari hamda baholash topshiriqlarining mazmuni va metodik jihatlari ham qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Shu tariqa, baholash natijalari ta’lim jarayonini uzluksiz takomillashtirishning muhim mexanizmini shakllantiradi: *o‘qitish → baholash → tahlil → fikr-mulohaza → takomillashtirish.*

Baholash sifatini ta’minlashda o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi baholash mezonlarini ishlab chiqish, topshiriqlarni kutilayotgan ta’lim natijalariga moslashtirish, talabalar faoliyatini xolis tahlil qilish va konstruktiv fikr-mulohaza berish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Talabaga faqat baho qo‘yish bilan cheklanmasdan, uning kuchli jihatlari, takomillashtirilishi lozim bo‘lgan yo‘nalishlari va keyingi amaliy harakatlarini ko‘rsatish muhimdir. Bunday yondashuv talabaning o‘quv faoliyatiga mas’uliyatini

oshirib, o‘z-o‘zini baholash va mustaqil ta’lim olish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Talabalarni baholash oliy ta’lim sifatini ta’minlash va boshqarishning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning xolis, shaffof va ishonchli tashkil etilishi ta’lim natijalarini to‘g‘ri aniqlash imkonini beradi. Zamonaviy baholash faqat test va imtihonlar bilan cheklanmasdan, loyiha, portfolio, amaliy topshiriqlar, o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash kabi usullarni uyg‘unlashtirishni talab etadi. Bu yondashuv talabalarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda, amaliy ko‘nikmalari, mustaqil va ijodiy fikrlashi hamda kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholash imkonini beradi.

Baholash jazolash yoki faqat baho qo‘yish vositasi emas, balki talabaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik mexanizm sifatida qaralishi lozim. Shu sababli baholash mezonlarini aniq va oldindan belgilash, formativ va summativ baholashni uyg‘unlashtirish, raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish hamda muntazam konstruktiv fikr-mulohaza berish muhimdir.

Shuningdek, baholash natijalari talabaning o‘zlashtirish darajasini aniqlash bilan birga, o‘qitish metodikasi va o‘quv mazmunini takomillashtirish uchun muhim tahliliy manba hisoblanadi. Shu asosda baholash “o‘qitish → baholash → tahlil → fikr-mulohaza → takomillashtirish” uzviyligiga asoslanib tashkil etilishi, natijada talabalarning mustaqil ta’lim olish, o‘z-o‘zini baholash va o‘z faoliyatini takomillashtirish kompetensiyalarini rivojlantirish hamda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qilishi lozim.

Adabiyotlar

1. Shodmonova Sh.S. va boshq. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2019.
2. Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo», 2019.
3. Nicol David J., Macfarlane-Dick Debra. Formative Assessment and Self-Regulated Learning: A Model and Seven Principles of Good Feedback Practice. // Studies in Higher Education, Apr, 2006, vol. 31 № 2. – P. 199-218.
4. Abdiraimov Sh.S., Maxmudov A.Z., Tojiboyev R.S. Ta’limda baholash va monitoring asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2026.
5. Muhammadiev O.A., Yuzbayeva M.Z. Oliy ta’limda talabalarni bilim olishga rag‘batlantirishning ayrim jihatlari. Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizomi. – Toshkent: 2018.
7. Hattie J., Timperley H. The Power of Feedback. // The Review of Educational Research (RER). Volume 77, Issue 1, 2007.